

OZOD SHARAFIDDINOV IJODIDA ADABIY-TANQIDIY QARASHLAR

Hamroyeva Maftuna

Termiz davlat universiteti, O'zbek filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11624565>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ozod Sharafiddinov ijodi, adabiy-tanqidiy maqolalari va tarjima asarlari yoritilgan, munaqqid faoliyati haqida fikrlar berilgan. Tanqidchiligimiz rivojida turgan o'rni va tadqiqotlari haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Munaqqid, ijodkor, uslub, maqola, she'riyat, tanqid, tanqidiy fikr, tarjima, tarjimon, adabiyot, asarlar tahlili.

LITERARY AND CRITICAL VIEWS ON THE WORK OF OZOD SHARAFIDDINOV

Abstract. In this article, Ozad Sharafiddinov's work, literary-critical articles and translated works are covered, and opinions are given about the work of the critic. Reflections were made on the role and researches in the development of our criticism.

Keywords: critic, creator, style, article, poetry, criticism, critical opinion, translation, translator, literature, analysis of works.

ЛИТЕРАТУРНО-КРИТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА ТВОРЧЕСТВО ОЗОДА ШАРАФИДДИНОВА

Аннотация. В данной статье освещено творчество Озада Шарафиддинова, его литературно-критические статьи и переводные произведения, даны мнения о творчестве критика. Были размышления о роли и исследованиях в развитии нашей критики.

Ключевые слова: критик, творец, стиль, статья, поэзия, критика, критическое мнение, перевод, переводчик, литература, анализ произведений.

Ozod Sharafiddinov o'zbek adabiyotida xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga munosib hissa qo'shgan ijodkordir. O'zbek adabiy muhitida adabiy tanqidchi, tarjimon, jamoat arbobi, notiq sifatida faoliyat yuritdi. O'zining dastlabki taqriz va maqolalari bilan yuksak bilimga ega zukko shaxs ekanligini ko'rsatdi. Ozod Sharafiddinov hayotini ilm va adabiyotga baxshida etgan insondir. Vatan tuyg'usini o'zining yorqin satrlarida aks ettirgan. Ijodiy ishlari, maqolalari va asarlari munaqqidning naqadar sermahsul va barakali ijod qilganidan dalolat beradi.

Abdulla Qahhor, Ozod Sharafiddinov faoliyati haqida fikr bildirib, jumladan shunday deydi: "Ozod Sharafiddinov adabiyot ilmiga, aniqroq qilib aytganda, adabiy tanqidchilikka yonib kirdi va hozirgacha mana shu fazilatni saqlab qoldi". Umrining oxiriga qadar adabiyotga, ijodga chin dildan yondashib, sadoqat ila xizmat qiladi. Ozod Sharafiddinov adabiy tanqid nazariyasini mukammal biladi, adabiy tanqidning janr va shakllarini farqlay oladigan ijodkordir. U qanday mavzuda yozish, qanday mavzuda yozmaslikni yaxshi bilardi.

O'zbek poemalari mavzusida ijodiy ish olib borib, "Hozirgi o'zbek sovet poemalari" degan mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini (1955) himoya qildi. Ijodiy ishda bu mavzuni atroflicha yoritib berdi. "Lirika haqida mulohazalar" maqolasi Ozod Sharafiddinovni adabiy jamoatchilikka tanitgan ijodiy ish hisoblanadi. Maqolada lirika haqida 50-yillarning ikkinchi yarmidagi munozalarni yoritib bergan.

“Zamon, qalb, poeziya” (1962), asarida she’riyatning kechagi kuni va bugungi kundagi yutuq va kamchiliklarini aks ettirgan. “Adabiy etyudlar” (1968), nomli kitobidan o’rin olgan maqolalarida A.Qahhor, Zulfiya, M.Boboyev, P.Qodirov asarlarini tahlil qildi. Bundan tashqari “Bayroqdorlar” (1974), “Mahorat saboqlari” (1975), “Birinchi mo’jiza” (1979), “Hayot bilan hamnafas” (1983), “Dovondagi o’ylar”, “Ijodni anglash baxti” (2004), “Domlalar” (2009) asarlari muallifi hisoblanadi. Poeziya muammolari bilan shug’ullangan, o’zbek she’riyati va uning holati, xususiyatlarini yoritib bergan adabiy-tanqidiy maqolalar yozgan. O’zbek she’riyati, nasri va tanqidchiligining muhim muammolarini yoritgan asarlari qatoriga “Talant-xalq mulki” (1979), “Adabiyot-hayot darsligi” (1980), “Hayot bilan hamnafas” (1983), “Go’zallik izlab” kabi asarlarni keltirish mumkin.

Ozod Sharafiddinov o’zbek adabiyotining yetuk ijodkorlari Oybek, G’afur G’ulom, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Zulfiya, Odil Yoqubov, O’tkir Hoshimov singari namoyondalar haqida adabiy portretlar yaratgan. Abdulla Qahhorga nisbatan nohaq ayblovlar qo’yilganda uni himoya qilishga kirishdi. “Iste’dod jilolari” kitobidagi “So’z san’atiga fidoyi sadoqat” deb nomlangan bo’lim, Oybek adabiy-tanqidiy qarashlarini o’rganishga bag’ishlangan.

Oybek lirikasi haqida to’xtalib, “Oybek lirikasi haqida o’ylaganimda, uning inson ruhining eng chuqur qatlamlarigacha kirib borganini, inson qalbining eng nozik tebranishlarigacha payqay olganini xayolimga keltiraman. Ayni choqda, Oybek socialistik zamonning shoiri, yangi hayotning kuychisi edi” – deb bayon etadi. “Cho’qqi” deb nomlangan bo’limda G’afur G’ulom faoliyati, she’rlari, asarlari va maqolalari yoritilgan. G’afur G’ulomning iste’dodi ko’p qirrali edi. U o’z qalbining boyliklarini saxiylik bilan hamma janrlarda kitobxonlarga ulashardi. G’afur G’ulom hikoyalari ham, qissalari ham g’oyat xalqchil. Bu xalqchilik faqat ularning syujetidagina emas, balki qahramonlarning xarakterida ham, asarning har bir to’qimasida ham mujassam. G’afur G’ulom xalqimizning ruhini chuqur biladigan, g’oyat nozik his etadigan va katta mahorat bilan uni asarlariga singdira oladigan yozuvchi ekanligini, Ozod Sharafiddinov maqolasida yoritib bergan. Boshqa tadqiqotchilar qatori, Cho’lpon adabiy merosi haqida tadqiqotlar yaratdi. Abdulla Qahhorni iste’dodli san’atkor sifatida bildi. Cho’lpon ijodiga bag’ishlangan “Cho’lpon” nomli asari ijodkor haqidagi birinchi, xayrixohlik bilan yozilgan ilmiy-tahliliy, tadqiqot asari edi.

Cho’lponni ijodkorligi borasida o’zining fikr va mulohazalarini bildirib jumladan Cho’lpon haqida shunday deydi: “Cho’lponni anglash – so’z san’atining botiniy qonuniyatlarini teran anglash, ularning shoir ijodida qanday zohir topishini anglashdir. Cho’lponni anglash – uning umumbashariy g’oyalari, uning yuksak insoniy tuyg’ularini yurakka singdirib olishdir.

Cho’lponni anglash – Vatanni, ko’hna insoniy tuyg’ularini yurakka singdirib olishdir.

Cho’lponni anglash – Vatanni, ko’hna Turkistonimizni Cho’lpon ko’zi bilan ko’rib, Cho’lpon yuragi bilan seva bilmoqdir”.

Ozod Sharafiddinov maqolalarida fikrlarini ochiq-oydin ayta olgan va aniq dalillar keltirgan. “Tanqidchilik kasbi haqida” maqolasida ham tanqidchilik faoliyati, tanqidchining zimmasidagi vazifalariga to’xtalib, ular faoliyati haqida o’zining fikrlarini bildirgan. Tanqidchi zimmasidagi mas’uliyatni his etib yondashishi, biror bir narsa yozganda unga shunchaki, yuzaki yondashib xayoliga nima kelsa shuni dabdurustdan bayon etmasdan, nima yozayotganiga e’tibor qaratib chin dildan yoritishishi zarur. Kichkina bir narsa yozsa ham shunga ham e’tiborli bo’lish kerak. Hattoki bir taqriz yozsa ham uni yaxshilab bayon etishi zarur, chunki uni qanchadan qancha

odamlar o'qiydi, undagi fikrlardan bahramand bo'ladi. Shuning uchun ijodkor nimadir yozayotgan paytda kitobxon qalbiga kirib bora oladimi, degan fikrlarni o'ylab ijod qilishi kerak. "Iste'dodsiz, talantsiz yozilgan tanqidiy maqoladan foydadan ko'ra ko'proq zarar keladi" – deydi munaqqid.

Haqiqatan ham shunchaki nimadir yozsam bo'ldi deb qilingan ishdan ko'proq zarar keladi.

Bularni ham ijodkor o'z maqolalari mag'ziga singdirgan. Yozuvchi maqolada, "Mening nazarimda, tanqidchi asarning nuqsonini topishdan ko'ra ko'proq undagi mavjud – yashiringan go'zallikni topib ko'rsata bilishi lozim. Agar ta'rif kerak bo'lsa, tanqid – bu badiiy adabiyotdagi, she'riyatdagi, nasrdagi yashirin go'zallikni kashf qilish san'ati, derdim" – degan fikrlarni bildiradi.

Shu jumladan ham tanqidchi yelkasida, qanchalar og'ir yuk turishini, shunga yarasha harakat qilishi kerakligini anglaymiz.

Ozod Sharafiddinov talantli ijodkor edi, "She'r ko'p, ammo shoirchi?" maqolasi tahliliga yuzlanamiz. Maqolada yozadi: " Xo'sh, nega endi bugungi she'riyatimizda o'rtamiyonachilik kuchayib ketayapdi?... Nega she'rlarda olam tor, hayot nafasi zaif, kitobiylik kuchli". Bu maqolada endi munaqqid "shoir" ga yuzlanadi. Ko'p kishilar bir ikkita she'r yozib, o'zini darrov shoir deb hisoblayapdi. She'rlarida hayot nafasini, juda zaif ifodalaydi. Ular shunchaki ijod qiladi, "shoir" degan tushunchaning mazmunini to'la anglab yetmagan. Inson ko'plab she'r yozsa ham, ularda ma'no va mazmunni to'la ochib bera olmasa shoirlik maqomiga yetisha olmaydi. Haqiqiy shoir nimani yozayotgan bo'lsa o'sha narsani qalban his qiladi, qahramoni o'rniga o'zini qo'yadi, o'z ichki fikrlarini qahramoni tiliga ko'chiradi, shundagina she'rlari mazmunli va salmoqli chiqadi.

Munaqqid "Shoirlik – hamisha e'tiqodlilikdir. Shoirlik – hamisha vijdonning uyg'oqligidir.

Shoirlik – hamisha bezovtalikdir. Shoirlik – hamisha ulug'mas'uliyatdir" – degan xulosaga keladi. Bu maqolada ham shoirlik faoliyatini munaqqid to'g'ri baholay olgan. Eng muhimi keltirilgan fikrlardan ham munaqqidning o'z fikrlarini dadillik bilan ayta olganini ko'rishimiz mumkin.

Munaqqidning "E'tiqodimni nega o'zgartirdim" maqolasi ham ahamiyatga molikdir.

Maqolada partiyadagi faoliyati yoritilgan. Partiyaga chaqiriq qog'ozi bilan kirgan emas, o'zi xohlab partiyaga kirgan, lekin partiyada kechayotgan voqealarni ko'rib ko'ngli sovugan.

Partiyaning ichki hayotida yolg'on, aldov va g'irromlikning avj olishi jamiyat hayotida ko'pdan ko'p illatlarning tomir otishiga sabab bo'ldi. Avvallari partiya u uchun yetib bo'lmas yuksaklikdagi narsa edi, endi esa shunday odamlar bilan hamsaf bo'lib ishlaydi. Partiyaning hamma topshirig'ini yelib-yugurib, ortig'i bilan ado etishga harakat qildi. Hammaslklarining ishonchini oqlash uchun ham g'ayratiga g'ayrat qo'shib ishladi. Hamma joyda hamma narsada haqiqat bo'ladi deb o'ylagandi, lekin nohaqliklarga duch keldi. Maqolada, munaqqid onasining ham partiyadagi faoliyatini yoritgan. Onasi nutqida shunday jumlar uchraydi: "Men ellik yillik umrimni partiyaga bag'ishladim, sochimni supurgi, qo'limni kosov etib, uning xizmatini qildim, endi esa partiya shiramni so'rib olib, po'stimni tuflab tashladi. Shuncha xizmatlarim qumga singib ketdimi?" Onasi ham partiya uchun jon jahdi bilan mehnat qilgandi. Lekin bunga yarasha javob ololmadi.

Ozod Sharafiddinov qalamiga mansub, "Muqaddas burch", "Buyuklarimiz bag'rimizga qaytdi", "Modernizm jo'n hodisa.. emas", "G'aroyib haqiqatni kashf etdim", "Istiqlol adabiyoti eng ilg'or adabiyotdir", "Adabiy tanqid va yangi tafakkur", "Iste'dod bilan uchrashish bayrami" kabi maqolalari yangi davr tanqidchiligining yaxshi namunalaridan hisoblanadi.

A.Rasulov, Ozod Sharafiddinov uslubini yoritib, “Munaqqid Ozod Sharafiddinov o’zbek tanqidchiligi qozonida qaynadi, o’zbek adabiy-tanqidiy muhitida shakllandi” – degan fikrlarni bildiradi. O’zbekiston Respublikasi fan arbobi Matyoqub Qo’shjonov ham Ozod Sharafiddinov haqida, “Ozod Sharafiddinov anchagina qiyinchiliklarni boshdan kechirdi. Bunga aksariyat hollarda uning cho’rtkesarligi, o’z fikrlarini xolisona aytishga moyilligi sabab bo’lardi” – deb bayon etadi. Bu gaplarda ham Ozod Sharafiddinovning haqiqatparvarlik, vatanparvarlik xislatlari ochib berilgan.

Ozod Sharafiddinov tarjima san’atiga tanqidchilik konsepsiyasini olib kirgan. L.Tolstoy “Iqromoma”, P.Koelo “Kimyogar”, A.Sevela “To’xtating samolyotni, tushib qolaman” asarlarini o’zbek tiliga tarjima qilgan. O’zbek xalqini jahon madaniyati bilan tanishtirish, undan, bahramand qilish, dunyoqarashini kengaytirishni o’z oldiga maqsad qilib qo’yan. Tarjima munaqqid ijodida hech qachon tirikchilik manbaiga aylanmagan.

Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki, Ozod Sharafiddinov serqirra ijodkor, insonlarni adabiyotni tushunishga o’rgatgan buyuk ustozdir. Adabiy va tanqidiy maqolalarida ijod va ijodkorning adabiyot va hamda jamiyat oldidagi burchini keng aks ettirgan. Bular ma’lum ma’noda yoshlar uchun tarbiya maktabidir. Asarlari faqatgina adabiyot haqida tushuncha paydo qilmasdan, u haqidagi ilmlarni ham o’rgatadi. Biz yosh avlodga tengsiz ma’naviy meros qoldirgan.

Maqolalarida misollarni faktlar bilan keltirgan, shunchaki quruq asoslash bilan cheklanmagan. Bu asar mohiyatini, qadr-qimmatini oshirgan, maqolalarining o’qishlilikini ta’minlagan. Ozod Sharafiddinov mushohadasi keng, fikrlovchi munaqqidlardan hisoblanadi. Ozod Sharafiddinov o’z fikri, uslubi, talqini va tanqidiy qarashlari bor betakror shaxsdir.

REFERENCES

1. B.Nazarov, A.Rasulov, Q.Qahramonov, Sh.Axmedova. O’zbek adabiy tanqidchiligi tarixi, Cho’lpon nomidagi nashriyot-matba ijodiy uyi, Toshkent-2012.
2. B.Karimov, O’zbek adabiy tanqidi (antologiya) Toshkent “Turon-Iqbol” 2011.
3. Ozod Sharafiddinov “Iste’dod jilolari” G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, Toshkent-1976.
4. Ozod Sharafiddinov “Dovondagi o’ylar” Toshkent “Ma’naviyat” 2004.
5. Ozod Sharafiddinov “Ijodni anglash baxti” “Sharq” nashriyoti, Toshkent -2004.
6. Ozod Sharafiddinov “E’tiqodimni nega o’zgartirdim?” maqolasi “Tafakkur” jurnali 1997-yil, 10-son.